



THE STAGES OF DEVELOPMENT OF THE MORAL AND ETHICAL IMAGE OF A CIVIL SERVANT

Jamshid Shuhratovich Shonazarov

PhD in Philosophy, Associate Professor

Department of Social Sciences

Shahrisabz State Pedagogical Institute

e-mail: jshonazarov1981@gmail.com

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Civil servant, ethics, political governance, authority, values, state, society, development, moral policy, management culture, ethical values, the East, ruler, ruler's ethics.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: the purpose of this information about the material of information and information created by Central Asia, which is specific to obtaining falsely comprehensive information about educational and information issues in the civil service, is false information about the state service, as well as the development of the information and Information Service of the public service in the field of.

DAVLAT XIZMATCHISI MA'NAVIY-AXLOQIY QIYOFASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Jamshid Shuhratovich Shonazarov

F.f.n., dotsent

Ijtimoiy fanlar kafedrası

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

e-mail: jshonazarov1981@gmail.com

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Davlat xizmatchisi, axloq, siyosiy boshqaruv, hokimiyat, qadriyat, davlat, jamiyat, rivojlanish, axloqiy siyosat, boshqaruv madaniyati, axloqiy qadriyat, Sharq, hukmdor, hukmdor axloqi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat xizmatida ma'naviyat va axloq masalalari falsafiy jihatdan kengroq tadqiq etilishga muhtoj, xususan, Markaziy Osiyoda yaratilgan ma'naviy-axloqiy asarlardagi mavzuga oid falsafiy g'oyalarni keng o'rganish zaruriyati mavjudligi bilan bir qatorda davlat xizmatchisi

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ОБЛИКА ГОСУДАРСТВЕННОГО СЛУЖАЩЕГО

Жамшид Шухратович Шоназаров

Кандидат философских наук, доцент

Кафедра социальных наук

Шахрисабзский государственный педагогический институт

e-mail: jshonazarov1981@gmail.com

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Государственный служащий, этика, политическое управление, власть, ценности, государство, общество, развитие, нравственная политика, культура управления, нравственные ценности, Восток, правитель, этика правителя.

Аннотация: целью данного информационного материала об информации и сведениях, созданных компанией Central Asia, который специфичен для получения ложно полной информации об образовательных и информационных вопросах на государственной службе, является предоставление ложной информации о государственной службе, а также развитие информации и информационного сервиса государственной службы в области.

Kirish. Tarixan davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida davlat xizmatining tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanishi murakkab tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Davlat xizmatining markazida turgan eng muhim subyekt — davlat xizmatchisi maqomi ham shu bosqichlarda shakllanib, o'zining ma'naviy-axloqiy qiyofasini takomillashtirib borgan. Har bir tarixiy davrda davlat xizmatchisining axloqiy fazilatlarini, kasbiy mas'uliyati va fuqarolarga munosabati davlat siyosatining ma'naviy mazmunini belgilab bergan.

Zamonaviy davrda mamlakat siyosiy tizimini ishonchli mustahkamlashning eng muhim sharti — jamiyatda adolat tamoyilining sezilishi va amal qilishidir. Oddiy fuqaroda adolat hissining mavjudligi davlat organlariga bo'lgan ishonchni oshiradi, boshqaruv tizimida esa ochiqlik va mas'uliyat muhitini yaratadi. Shu bois, bugungi kunda davlat boshqaruvini takomillashtirish jarayonida davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini yuksaltirish eng dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Davlat xizmatchisi faoliyatida axloqiy qadriyatlarning tiniq aks etishi, ularning amaliy faoliyat bilan uyg'unligi davlat boshqaruvida axloqiy siyosat ustuvorligini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida, davlat xizmatining samaradorligini oshirish, korrupsion omillarni kamaytirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan,

davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ushbu tadqiqotda davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi tarixiy manbalar, Sharq mutafakkirlarining qarashlari hamda zamonaviy boshqaruv nazariyalari asosida tahlil qilindi. Metodologik asos sifatida tarixiy-qiyosiy, tizimli yondashuv va mantiqiy tahlil metodlari qo'llanildi.

Adabiyotlar sharhi. Tarixan Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlarida davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, shaxsiy pokligi va jamiyatga ta'siri chuqur o'rganilgan. Xususan, "Avesto" davri boshqaruv madaniyatida Oliy kengash (Xanjamana) a'zolarining tarkibi va faoliyatiga oid ma'lumotlar mavjud bo'lib, unda davlat xizmatchisi o'z borlig'ida, ya'ni ma'naviy-axloqiy qiyofasida muqaddas to'rt unsur — suv, havo, tuproq va olov o'rtasidagi muvozanatni saqlashi lozimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, "Avesto"ning "Vandidod" boblarida davlat va jamiyat boshqaruvi, jinoyatni jazolash hamda yaxshilikni mukofotlash tamoyillari davlat xizmatchilari tomonidan yoddan bililishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan (Bartold, 1963, p. 78).

Tadqiqotda tarixiy merosni o'rganishda Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" hamda Abulg'azi Bahodirxonning "Shajarai turk" asarlarida keltirilgan boshqaruvga jalb etiluvchi shaxslarning axloqiy sifatlarga doir qarashlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, akademik V. Bartoldning Tohiriylar davrida jamiyat va davlat manfaatlarining uyg'unlashtirilishi haqidagi fikrlari ham tarixiy manbaviy asos sifatida qo'llanildi.

Shuningdek, qadimgi shak va massagetlar to'g'risida yunon tarixchisi Gerodot tomonidan keltirilgan ma'lumotlar ham tahlil qilinib, bu xalqlarda boshqaruv madaniyatida jamoatchilikning o'rni yuksak bo'lganligi aniqlanadi. M. K. Nakisheva o'z tadqiqotlarida sak va massagetlarda siyosiy tizim va boshqaruv axloqining ijtimoiy asoslardan kelib chiqqanini ta'kidlaydi (Nakisheva, 1990, p.42).

Ushbu manbalar tahlili asosida Markaziy Osiyoda davlat xizmatining ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllanishining dastlabki bosqichlarida davlatni idora etish va jamiyat tartibini saqlash masalalari ijtimoiy manfaatdorlik va adolat g'oyasi asosida hal etilgan degan xulosa chiqarildi.

Tadqiqotlar va natijalar. Tarixan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qarashlarida davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi jamiyat barqarorligi va boshqaruv madaniyatining asosi sifatida talqin qilingan. Dastlabki manbalar orasida "Avesto" alohida o'rin tutadi. Unda davlat boshqaruvi tizimining asosiy elementi sifatida Oliy kengash (Xanjamana) faoliyati qayd etilib, uning a'zolari ma'naviy-axloqiy muvozanatga ega, to'rt unsur - suv, havo, tuproq va olov o'rtasida uyg'unlikni saqlay oladigan shaxslar bo'lishi lozimligi ta'kidlanadi. "Avesto" ning

“Vandidod” qismida esa davlat va jamiyat boshqaruvi, jinoyatni jazolash va yaxshilikni mukofotlash tamoyillari aniq ko‘rsatmalarda ifoda etilib, ularni davlat xizmatchilari mukammal bilishi zarurligi qayd etilgan (Bartold, 1963, p. 78).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoda davlat xizmati qadriyatlari dastlab ijtimoiy manfaatdorlik va adolat g‘oyasi asosida shakllangan. Miloddan avvalgi II–I ming yilliklarda Arshakiylar hamda Kengaras siyosiy uyushmalarida boshqaruv tizimi jamoatchilik manfaatiga xizmat qilgan. Yunon tarixchisi Gerodotning qayd etishicha, shak va massagetlar davrida ham siyosiy boshqaruvda jamoatchilik ishtiroki va mas‘uliyati muhim ahamiyat kasb etgan (Herodotus, 1890, p. 112). Shu fikrni M. K. Nakisheva ham tasdiqlab, bu xalqlarda boshqaruv axloqi ijtimoiy asoslardan kelib chiqqanini ta’kidlaydi (Nakisheva, 1990, p. 42).

O‘rta asrlarda esa Markaziy Osiyo mutafakkirlari davlat boshqaruviga oid axloqiy tamoyillarni ilmiy asosda yoritganlar. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida boshqaruvga jalb etiluvchi kishilarning axloqiy pokligi, aql-idroki va adolatparvarligi eng muhim shart sifatida ko‘rsatiladi. Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarida ham davlat arbobining fazilatlari, shaxsiy mas‘uliyati va ma’naviy burchi haqida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. Akademik V. Bartold Tohiriylar davlat siyosatida jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unlashuvi davlat boshqaruvi madaniyati yuksalishining yangi bosqichini tashkil etganini ta’kidlaydi (Bartold, 1963, p. 115).

Shuningdek, Somoniylar (IX–XI asrlar), Qoraxoniylar (X–XII asrlar), G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatchilik tizimida ham davlat xizmatchilarining axloqiy qadriyatlari Tohiriylar davrining an‘analariga yaqin bo‘lgan. Bu davrlarda davlat xizmatchisining adolat, poklik va halollik kabi fazilatlari boshqaruv tizimining poydevoriga aylangan.

VIII asrdan boshlab esa davlat boshqaruvida Islomiy axloqiy tamoyillar yetakchi o‘rinni egallay boshlagan. Qur‘oni karimdagi “Alloh sizlarga insonlar orasida hukm qilganingizda adolat bilan hukm qilishingizni buyuradi” (Qur‘on, 4:58) oyati davlat xizmatchilari uchun axloqiy-me‘yoriy yo‘l-yo‘riq sifatida qabul qilingan. IX–X asrlarda esa Islom huquqi (fiqh) asosida davlat boshqaruvi to‘liq tartibga solinib, bu jarayon ijtimoiy va madaniy an‘anaga aylandi.

Mazkur davrda yashagan mutafakkirlar — Abu Sulaymon al-Juzjoni (v. 816), Abu Hafs al-Buxoriy (v. 832), Muhammad ibn al-Hasan ash-Shayboniy (v. 805), Imom Abu Mansur al-Moturidiy (v. 944), Abu Muti’ Makhul an-Nasafiy (v. 930), al-Hakim as-Samarqandiy (v. 953), Abu Lays as-Samarqandiy (v. 984), Shams al-A‘imma as-Saraxsiy (v. 1096), Burhoniddin Marg‘inoniy (v. 1197) va boshqalar davlat boshqaruvi axloqini nazariy jihatdan asoslab berdilar. Ularning asarlarida rahbar shaxsining adolat, vijdon, halollik, mas‘uliyat va xizmat burchi tamoyillari ustuvor o‘rin tutadi.

Munozara. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XI–XII asrlarda davlat xizmatchilari axloqiga oid madaniy an'analar to'liq ravishda islomiy axkom va fiqhiy me'yorlar asosida shakllandi. Bu davrda buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasini ifodalovchi 12 mezon va me'yorlar tizimini ishlab chiqdi. U bunday fazilatlarni o'zida mujassam etgan insonlarni "kam uchraydigan nodir shaxslar" deb atab, ularni davlat boshqaruvi tizimida faol ishtirok etishga munosib deb biladi (Forobiy, 1993, p. 65). Uning fikricha, bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatning fozilligi, adolat va ma'naviyatning ustuvorligi bilan bevosita bog'liq.

Davlat boshqaruvi madaniyatiga oid ilmiy tadqiqot olib borgan Z. Jo'rayev ham ushbu davrda yaratilgan ko'plab manbalar, xususan, Abu Mansur as-Sa'alibiyning "Tuhfatu-l-vuzaro" ("Vazirlarga tuhfa") asarini tahlil qilib, unda davlat xizmatchilarining siyosiy madaniyati va axloqiy mas'uliyati keng yoritilganini qayd etadi (Jo'rayev, 2004, p. 112). Shuningdek, Quduriyning "Muxtasari Quduriy", al-Movardiyning "Ahkom as-sultoniya", "Nasihah al-muluk" va "Siyosat al-muluk" asarlari ham o'sha davrda davlat xizmatchilari faoliyatini huquqiy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan tartibga solgan manbalar sirasiga kiradi.

Ayniqsa, al-Movardiy o'z asarlarida davlat xizmatiga xodimlarni tanlash, ularning axloqiy fazilatlari, adolatli qaror qabul qilish va burchga sadoqat tamoyillarini asoslab beradi (al-Movardiy, 1985, p. 73). Z. Jo'rayev ushbu asarlarni boshqaruv madaniyatining nazariy poydevori sifatida baholaydi. Shu bilan birga, o'zbek olimlari — B. Valixojayev, Nosir Muhammad hamda nemis tadqiqotchisi Ulrix Rudolfning ilmiy ishlanmalarida islom fiqhshunosligi va davlat xizmati o'rtasidagi o'zaro aloqalar tahlil etilgan (Valixojayev, 2000, p. 94).

Bu davrda ko'plab hadisshunos va fiqh olimlari nafaqat diniy ulamolar, balki davlat arboblari sifatida ham faoliyat yuritganlar. Masalan, Muhammad Naxshabiy Nasr ibn Ahmad Somoniy davrida bosh vazir sifatida ishlagan, Burhoniddin Marg'inoniy esa Samarqand shayxulislomi lavozimida faoliyat yuritgan. Ularning faoliyati islomiy axloq va davlat xizmatining uzviy aloqasini yaqqol ko'rsatadi.

Shu davr madaniy yodgorliklaridan biri — Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari davlat xizmati talablari, rahbar axloqi va ma'muriy burchlar haqida chuqur mulohazalarni o'z ichiga oladi. Boshqaruv madaniyatining eng yuksak namunalaridan biri bo'lgan Nizomulmulukning "Siyosatnoma" asarida davlat xizmatchisini tarbiyalash va uni rahbarlik madaniyatiga tayyorlash jarayoni Alptegin va Sabuktegin misolida ifoda etiladi.

Amir Temur davriga kelib, davlat boshqaruvi falsafasi "Temur tuzuklari" asarida o'zining mukammal tizimini topdi. Bu asarda davlat xizmatchisi uchun zarur bo'lgan axloqiy mezonlar, xizmat burchi, sadoqat, adolat va halollik tamoyillari aniq belgilab qo'yilgan. Temuriy davrda bu

qoidalar amaliyotga tatbiq etilib, davlat siyosati va ma'naviy rahbarlikning yagona tizimi shakllantirilgan.

IX–XVI asrlarda Markaziy Osiyo jamiyatida tasavvuf tariqatlari ham davlat boshqaruvi axloqiga katta ta'sir ko'rsatgan. Sohibqiron Amir Temur Shamsuddin Kulol, Sayyid Baraka va Zayniddin Toybodiy kabi mashhur so'fiy allomalar bilan maslahatlashgan (Yazdiy, 1425, p. 56). Bu holat o'sha davrda siyosiy qarorlar va davlat xizmatida ruhiy poklik, ma'naviy yetuklik mezon sifatida qabul qilinganidan dalolat beradi.

Davlat xizmatchilari axloqi va boshqaruv falsafasi XV–XVI asrlarda Alisher Navoiy ijodida yuksak badiiy va falsafiy ifodasini topdi. U “Saddi Iskandariy”, “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida hukmdor va rahbar shaxs uchun zarur bo'lgan sifatlar — adolat, vijdon, halollik, rahm-shafqat, aql, sadoqat va xalqparvarlik mezonlarini ilgari surdi. “Tarixi muluki ajam” va “Munshaot” asarlarida esa davlat boshqaruvi tajribasidan kelib chiqqan axloqiy tamoyillarni bayon etadi.

Shuningdek, “Boburnoma” (Z. M. Bobur), “Futuvvatnomai sultoni” (H. Voiz Koshifiy), “Nasihati ul-muluk” (A. G'azzoliy) kabi manbalarda davlat xizmatchisining halolligi, xizmat burchiga sadoqati va adolat tamoyillarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Bu asarlar o'rta asr Sharq siyosiy tafakkurining axloqiy yo'nalishini ifoda etuvchi yuksak namunalar hisoblanadi.

XVII–XIX asrlar oralig'ida esa Markaziy Osiyoda siyosiy inqirozlar boshqaruv tizimining zaiflashuviga olib keldi. Biroq XIX asr oxiri — XX asr boshlariga kelib, jadidlar harakati bu sohani yangicha mafkuraviy ruhda davom ettirdi. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligidagi siyosiy tizim, boshqaruv mexanizmlari va ma'muriy axloqni tanqid qilib, adolatli, ilmga asoslangan boshqaruv zarurligini ilgari surdi (Jumayev, 2001, p. 88).

Abdurauf Fitrat esa Turkistonda davlat xizmatining inqirozi sabablarini ulamlarning jaholatga, amaldorlarning poraxo'rlikka, rahbarlarning mas'uliyatsizlikka berilishi bilan izohlaydi. U “fitna, g'iybat, poraxo'rlik va g'aflat” boshqaruvni tanazzulga olib boruvchi illatlar ekanini ta'kidlab, ma'naviy poklanishga asoslangan boshqaruv modelini ilgari suradi (Fitrat, 1923, p. 41).

Shunday qilib, tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi Markaziy Osiyo tafakkurida doimo markaziy o'rinni egallagan. U — davlat barqarorligi, boshqaruv adolati va jamiyat ishonchining asosi sifatida talqin qilingan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarixiy va zamonaviy tajribalar davlat xizmatchisining ma'naviy-axloqiy qiyofasi masalasi davlat boshqaruvi falsafasining markaziy yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqotning boshida qo'yilgan maqsad — davlat xizmatchisi axloqi va ma'naviyatining tarixiy shakllanish bosqichlarini, ularning zamonaviy boshqaruvdagi o'rnini falsafiy-nazariy asosda tahlil etish — to'liq amalga oshirildi.

Birinchidan, tarixiy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, davlat xizmati axloqi qadimiy Sharq tafakkurida jamiyatni boshqarishning ma'naviy ustuni sifatida shakllangan. Forobiy, Nizomulmulk, Yusuf Xos Hojib, Burhoniddin Marg'inoniy, Alisher Navoiy kabi allomalar asarlarida davlat xizmatchisining axloqiy barkamolligi, halollik, adolat va mas'uliyat tamoyillari boshqaruv madaniyatining mezoni sifatida talqin etilgan.

Ikkinchidan, zamonaviy boshqaruv tizimlarida ham ushbu qadriyatlar o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Axloqiy me'yorlar va kodekslar davlat xizmatchilarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi asosiy mexanizm sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, axloqiy nazorat tuzilmalari va komissiyalar faoliyatining kuchaytirilishi boshqaruv madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, davlat xizmati jarayonida ma'naviy va siyosiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi murakkab, ammo zaruriy jarayondir. Davlat xizmatchisining shaxsiy madaniyati va jamiyat oldidagi axloqiy mas'uliyati davlat boshqaruvi sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Sharq va G'arb mutafakkirlarining davlat xizmati axloqiga doir qarashlarini qiyosiy o'rganish bugungi kunda ham dolzarbdir. Ularning tarixiy-amaliy tajribasi davlat xizmatining insonparvar, adolatli va ma'naviy asoslarini mustahkamlashda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatchisi ma'naviy-axloqiy qiyofasining rivojlanish bosqichlarini o'rganish, uni zamonaviy boshqaruv amaliyotiga tatbiq etish davlat xizmati sifatini yuksaltirish, korrupsiyani kamaytirish, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlash hamda boshqaruvda adolat va mas'uliyat muhitini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурауф Фитрат. (2000). Танланган асарлар (Ж. 1). Тошкент: Маънавият.
2. Авесто. (2001). Тарихий-адабий ёдгорлик. Тошкент: Шарқ.
3. Абулғозий. (1992). Шажараи турк. Тошкент: Чўлпон.
4. Бартольд, В. В. (1890–1907). Тахириды. В Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона (Т. 1–86). Санкт-Петербург.
5. Форобий, А. Н. (1993). Фозил одамлар шаҳри (Б. 159–160). Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
6. Жўраев, З. (2019). Ал-Мовардийнинг “Ал-аҳком ас-султонийя” асари – мусулмон шарқи давлат бошқаруви тарихига оид муҳим манба (XI асп) (PhD диссертацияси). Тошкент: ЎзХИА.
7. Низомулмулк. (1997). Сиёсатнома (Б. 102–121). Тошкент: Адолат.

8. Юсуф Хос Ҳожиб. (2015). “Қутадғу билиг” (“Саодатга элтувчи билим”). Тошкент: Академнашр.
9. Шарафиддин Али Яздий. (1994). Зафарнома. Тошкент: Камалак.
10. Равшанов, Ф. (2022). Давлат фуқаролик хизматчисининг маънавий қиёфаси. Тошкент: Маънавият.